



**SUPPORT
SCIENCE**

BUILDERS OF THE FUTURE

journal homepage:
<https://kelajakbunyodkori.uz/>



THE CONCEPT OF "ERGATIVITY" IN PASHTO AND HINDI LANGUAGES AND ITS GRAMMATICAL ANALYSIS

Shahrizoda Ochilova

3rd-year student of the Pashto-English group
"Persian Studies and Afghan Studies" Faculty
Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: shaxrizodaochilova320@gmail.com

Z. Normatov

Senior Lecturer
"Persian Studies and Afghan Studies" Faculty
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ergativity, transitive verb, intransitive verb, instrumental case, verbal combination, compound verb, object, objective construction, neutral construction, subjective construction.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: Among the Eastern languages that have greatly influenced the historical development of Pashto, the Hindi language is a significant one, and both lexical and grammatical elements of Hindi in Pashto serve as clear examples of this influence. This scientific article is considered one of the initial steps toward analyzing the interrelation, differences, and similarities of the "ergative construction" in both languages. Additionally, the article discusses how ergative constructions are formed in Pashto and Hindi languages, analyzed through sentences where the predicate agrees not directly with the subject, but with the object. Our goal is to carry out a comparative analysis of ergativity in Pashto with other Eastern languages in the future. In the preparation of this article, the following sources were used: R. Inomkhodjayev's "Grammar of the Pashto Language". "Methodological Approaches for Teaching the Ergative Construction in Pashto". R.M.V. Dixon's "Ergativity". M. Farooq's "Pashto Language: Solving the Mysteries of the Past Tense". Muhammad's "Ergative Construction in Pashto".

PASHTU VA HINDIY TILLARIDAGI “ERGATIVLIK” TUSHUNCHASI VA UNING GRAMMATIK TAHLILI

Shahrizoda Ochilova

3-kurs pashtu-ingliz guruhi talabasi

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: shaxrizodaochilova320@gmail.com

Z. Normatov

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi katta o‘qituvchisi

TDSHU

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ergativlik, o‘timli fe‘l, o‘timsiz fe‘l, vositali kelishik, fe‘liy birikma, qo‘shma fe‘l, to‘ldiruvchi, obyektiv konstruksiya, neytral konstruksiya, subyektiv konstruksiya.

Annotatsiya: Pashtu tilining tarixiy rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan sharq tillaridan hind tili hisoblanib, pashtu tilidagi hindiy tilining ham leksik ham grammatik unsurlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu ilmiy maqolada, ikki tildagi “ergativ konstruksiya”ning o‘zaro munosabati, farqlari va o‘xshash tomonlarini tahlil qilishga qaratilgan ilk qadamlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, maqolada pashtu va hind tillarida ergativ konstruksiya hosil qilinishi, gap kesimining bevosita ega bilan emas, balki to‘ldiruvchi bilan moslashishi orqali ifodalangan jumlar yordamida tahlil qilindi va o‘rganildi. Maqsadimiz kelgusida boshqa sharq tillaridagi ergativlik holatlarini pashtu tili bilan qiyosiy tahlil qilish va o‘rganishdan iborat. Ushbu maqolani yoritishda, biz pashtu tilidagi:

R.Inomxojayevning “Pashtu tili grammatikasi” kitobini, “Methodological Approaches for teaching the Ergative Construction in Pashto” maqolasini;

R.M.V.Dixonning “Ergativity” maqolasini; M.Farooqning “Pashto language: Solving the mysteries of the past tense” maqolasini; Muhammadning “Ergative construction in Pashto” maqolasidan foydalanildi.

ПОНЯТИЕ "ЭРГАТИВНОСТИ" В ПАСТУШСКОМ И ХИНДИ ЯЗЫКАХ И ЕГО ГРАММАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Шахризода Очилова

Студент 3 курса пастушско-английской группы

Факультет "Иранистика и афганистика"

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: shaxrizodaochilova320@gmail.com

3. Норматов

Старший преподаватель

факультет "Иранистика и афганистика"

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Эргативность, переходный глагол, непереходный глагол, инструментальный падеж, глагольное сочетание, составной глагол, объект, объективная конструкция, нейтральная конструкция, субъективная конструкция.

Аннотация: Среди восточных языков, оказавших значительное влияние на историческое развитие пастушского языка, особое место занимает хинди, и как лексические, так и грамматические элементы хинди в пастушском языке являются яркими примерами этого влияния. Эта научная статья считается одним из первых шагов к анализу взаимосвязи, различий и сходств "эргативной конструкции" в обоих языках. Кроме того, в статье рассматривается, как формируются эргативные конструкции в пастушском и хинди языках, анализируемые через предложения, где предикат согласуется не напрямую с подлежащим, а с объектом. Наша цель — провести сравнительный анализ эргативности в пастушском языке с другими восточными языками в будущем. В подготовке этой статьи использованы следующие источники: Книга Р. Иномходжаева "Грамматика пастушского языка". Статья "Методологические подходы к обучению эргативной конструкции в пастушском языке". Статья Р.М.В. Диксона "Эргативность". Статья М. Фарука "Пастушский язык: Разгадывая тайны прошедшего времени". Статья Мухаммеда "Эргативная конструкция в пастушском языке"

“Ergativlik” xususiyatiga ega tillarni butun dunyoda, jumladan, Amerika, Avstraliya va Yangi Gveniyada ham uchratishimiz mumkin. Tillardagi “ergativlik” O‘rta Osiyo hududida nafaqat pashtu tilida balki, hind, urdu, baluchi, kurd, qator pomir tillari ya’ni yag‘nobi va ro‘shoniy, kavkaz tillari jumladan, gruzin, mengel, laz, svannax hamda tibet tillarida mavjud .

Pashtu tilida o‘timli fe’llar bilan o‘tgan zamonda jumalarni hosil qilishning o‘ziga xos xususiyati hamda usuli mavjud. Bunga afg‘on tilshunosligida “ergativ bog‘lanish yoki konstruksiya” deyiladi. O‘z o‘rnida “ergativ konstruksiya o‘zi nima?”-degan savol bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilida bunday “ergativ bog‘lanish”degan tushuncha yo‘q, lekin pashtu tili ergativ til hisoblanadi. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, odatda o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar uchun ergativ konstruksiya


pashto tilining eng murakkab grammatik ko‘tsatkichi bo‘lib ko‘rinadi. Manbalarga ko‘ra, dunyoda so‘zlashiladigan har to‘rt tildan biri ergativ xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘pchilik o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar, pashtu tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishyotganida, o‘z ona tilini mukammal darajada bilsalarda, lekin ushbu tilni o‘rganyotgan paytda keng tarqalgan xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Masalan, pashtu tilida “it meni tishladi” jumlasini, agar o‘quvchida yetarli bilim va tajriba bo‘lmasa, “Men itni tishladim” deb javob berib, noqulay vaziyatga tushib qolishi mumkin. Mana shu jihatdan ham, “ergativ konstruksiya”ni mustahkam o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pashtu tilida ergativ konstruksiya

O‘tgan zamonda pashtu tilidagi fe‘llar o‘ziga xos jihatga ega. Ya‘ni o‘timli va o‘timsiz fe‘llarga ajraladi. O‘timli fe‘llar o‘tgan zamonning barcha turidagi moslashishda, o‘zgacha bir konstruksiya mavjud, ya‘ni bu pashtu tilida “ergativ konstruksiya” deyiladi. Ergativ konstruksiyada fe‘l gapning egasi bilan emas, balki gapda ishtirok etadigan to‘ldiruvchi bilan moslashishi, ya‘ni -ni (kimni? nimani?) savoliga javob beruvchi to‘ldiruvchi bilan shaxs va sonda, jinsda moslashishiga aytiladi. Ya‘ni to‘ldiruvchi qanday jins va sondagi grammatik kategoriyada bo‘lsa, xuddi shunday fe‘lning ko‘rsatkichi kelib chiqadi, ya‘ni uchta birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs birlik, ko‘plik va ularning o‘ziga xos bo‘lgan qo‘shimchalari mavjud bo‘lib, o‘sha qo‘shimchalardan to‘g‘ri foydalangan holda hosil qilinadi.

Gapning egasi vositali (kosvanniy) shaklda ifodalanadi. Bu faqat to‘ldiruvchiga xos bo‘lgan xususiyat hisoblanadi. Yana shuni ham ta‘kidlab o‘tish kerakki, ergativ konstruksiya o‘timli fe‘llar bilan kuzatilinadi.

Ergativ gapning standart namunasi quyidagicha ko‘rsatilishi mumkin:



Bu holatda:

A-Vositali kelishikdagi ega(kosvanniy)

O-Bosh kelishikdagi ob‘ekt(vositasiz to‘ldiruvchi)

V-Kesim(fe‘l)

Chiziq-fe‘lning moslashuv yo‘nalishi

Shuni ta‘kidlash kerakki, nominativ-akkusativ(tushum kelishigi) gaplarda ega “faoliyatni boshlaydi yoki nazorat qiladi” va agar fe‘liy moslashuv lozim bo‘lsa, fe‘l ega (sub‘ekt) tomonidan

talab qilinadigan kerakli shakllarni oladi. Ammo ergativ konstruksiyali tillarda fe'liy moslashuvlarda fe'lning shaklini vositasiz to'ldiruvchilar belgilaydi.

Ya'ni, gapning egasidagi o'zgarishlar (jins, son va shaxs ko'rsatkichlari) fe'lning shakliga ta'sir qilmaydi. Ammo, gapdagi vositasiz to'ldiruvchida yuz beruvchi shunga o'xshash o'zgarishlar, albatta, fe'l shaklini o'zgartirishni talab etadi.

Muzakkar jinsdagi ega bilan misol:

زلمي ېوډى خورله .

Ushbu gapda Zalmi (vositali kelishikda ifodalangan ega), doʻdey (birlikdagi muannas jinsdagi vositasiz to'ldiruvchi), wu (tugallangan zamon ko'rsatkichi), xwaḥḥa (fe'lning 3-shaxs birlikdagi muannas shakli).

Gapning tarjimasi, "Zalmai taom yedi".

Yana alohida diqqatga loyiq shundaki, mazkur gapdagi eganing o'zgartirilishi fe'lga umuman ta'sir ko'rsatmaydi.

Muannas jinsdagi ega bilan misol:

سپورمى ېوډى خورله .

Ushbu gapimizda Spojmey (Vositali kelishikda ifodalangan gap), doʻdey (birlikdagi muannas jinsdagi vositasiz to'ldiruvchi), wu (tugallangan zamon ko'rsatkichi), xwaḥḥa (fe'lning 3-shaxs birlikdagi muannas shakli).

Gapning tarjimasi, "Spojmey taom yedi".

Ega vazifasida kishilik olmoshi bilan misol:

ما ېوډى خورله .

Ushbu gapimizda mā (vositali kelishikda ifodalangan kishilik olmoshi, ega), doʻdey (birlikdagi muannas jinsdagi vositasiz to'ldiruvchi), wu (tugallangan zamon ko'rsatkichi), xwaḥḥa (fe'lning 3-shaxs birlikdagi muannas shakli).

Gapning tarjimasi, "Men taom yedim".

Endi agar gapdagi vositasiz to'ldiruvchining jins va son kategoriyasi o'zgartirilsa, bu o'zgarish bevosita fe'lga ta'sir ko'rsatib uni shaklini o'zgartiradi.

Masalan:

زلمي كباب خور .

Ushbu gapda Zalmi (vositali kelishikda ifodalangan ega), kabāb (birlikdagi muzakkar jinsdagi vositasiz to'ldiruvchi), wu (tugallangan zamon ko'rsatkichi), xoḥ (fe'lning 3-shaxs birlikdagi muzakkar shakli).

Gapning tarjimasi, "Zalmai kabob yedi".

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, ergativ konstruksiyali gaplarda vositasiz to‘ldiruvchi fe’lga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi, ega emas. Aynan mana shu jihat ergativ konstruksiyani o‘rgatishda uslubiy yondashuvni tanlashda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan asosiy jihatlardan biri hisoblanadi.

Mazkur ilmiy maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad pashtu va ushbu tilning tarixiy rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan sharq tillaridan hind tilidagi “ergativ konstruksiya”ning o‘zaro munosabati, farqlari va o‘xshash tomonlarini tahlil qilishdan iboratdir. Yuqoridagi qismlarda, pashtu tilidagi ergativ konstruksiya haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tildi. Juda qadim va uzoq ming yillik tarixga ega hind tilidagi biz mavzu doirasida atayotganimiz grammatik kategoriya “ergativ konstruksiya” hind tilidagi ko‘rinishi qanday ekanligini tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pashtu tili grammatikasida konstruksiya bittadir, u ham bo‘lsa, “ergativ konstruksiya” deb nomlanadi. Lekin pashto tilidan farqli o‘laroq, hind tili grammatikasida konstruksiya uchga bo‘linadi:

1. Subyektiv;
2. Obyektiv(ergativ);
3. Neytral;

Kesimning ega bilan moslashuvi uning o‘timli yoki o‘timsiz fe’l bilan ifodalanganligiga qarab turlichadir.

Subyektiv konstruksiya

Agar kesim o‘timsiz fe’l bilan ifodalangan bo‘lsa, u ega bilan jins va sonda moslashadi. Pashtu tilida bu konstruksiyaga misol:

(۱) زمور په حساب زور کال ختم شو¹.

Bizning hisobda yil tugadi.

[zmug pə həsāb zoṛ kāl xatəm shu.]

(۲) سنک او پیکې د تور غره لني ته ورسېدل².

[Sanak aw Pikey d tor g‘rə lne ta wu rasedəl.]

Sanak va Pikey qora tog‘ning etagiga yetib bordilar.

Hind tilida bu konstruksiyaga misol:

1. हम घर लौटे। [Ham ghar lo‘te]. Biz uyga qaytdik .

2. मैं समय पर आया। [Me samay par aya]. Men o‘z vaqtida keldim .

Obyektiv konstruksiya

Hind tilida ham ergativ konstruksiya bor, lekin uning nomlanishi pashtu tilidan farqlidir, ya’ni obyektiv konstruksiyadir. Egadan keyin keladigan “ne” ko‘makchisiga

¹ گل پاچا الفت. غوره نثرونه پشاور. ۱۳۷۳. ص-۷۷.

² عبدالغفور «الیوال». د ماشومانو لپاره کیسي او بوختیا وی. ۱۳۸۱ هـ/۲۰۰۲ م. ص-۱۷.

nsibatan ham shunday deyiladi. Bunday konstruksiyadan o'tgan zamon shakllarida o'timli fe'l kelganida ishlatiladi. Shunda o'timli fe'l ega bilan emas, vositali to'ldiruvchining jinsi va soni bilan moslashadi.

Pashtu tilida bu konstruksiyaga misol:

(۱) ما کتابونه کورته ورسول³.

[mā kitābuna kor ta wu rasawəl.]

Men kitoblarni uyga olib bordim.

(۲) زلمي دودۍ وخورله⁴.

[Zalmi ḍoḍey wu xwarəla.]

Zalmay taomni yedi.

Hind tilida bu konstruksiyaga misol:

1. लड़की ने यह समाचार सुना। [Larki ne ye samachar suna]. Qiz bu xabarni eshitdi .

2. लड़के ने कहानी पढ़ी। [Larke ne kahani parhi]. Bola hikoya o'qidi .

Neytral konstruksiya

Agar kesim o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, egadan so'ng ne ort ko'makchisi qo'yiladi va kesim ega bilan moslashmaydi. Agar gapda vositasiz to'ldiruvchi bo'lmasa yoki u bo'lsa-yu ko ort ko'makchisi bilan kelgan bo'lsa, u holda kesim neytral shaklda-birlik, muzakkar jinsda keladi. Lekin pashtu tili grammatikasida bu holat ko'plik, muzakkar jinsda ifodalanadi.

Bunga misol qilib pashtu tilidagi ويل [wayil] aytmq, demoq so'zini olaylik:

پلار يې وويل⁵.

[Plār ye wu wayil.]

Uning dadasi aytdi.

هلك وويل⁶.

[Halək wu wayil.]

Bola aytdi.

Hind tilida bu konstruksiyaga misol:

1. लड़की ने कहा। [Larki ne kaha]. Qiz bola aytdi .

2. लड़के ने कहा। [Larke ne kaha]. O'g'il bola aytdi .

³ M.Farooq. Pashto language: Solving the mysteries of the past tense. - P.32.

⁴ R.Inomkhojayev. Methodological Approaches for teaching the Ergative Construction in Pashto. USA. Indiana University. 2015. - P.5.

⁵ عبدالغفور «ليوال». د ماشومانو لپاره کيسې او بوختيا وي. ۱۳۸۱ هـ ش/ ۲۰۰۲ م. ص- ۱۳.

⁶ عبدالغفور «ليوال». د ماشومانو لپاره کيسې او بوختيا وي. ۱۳۸۱ هـ ش/ ۲۰۰۲ م. ص- ۱۴.

Ikkinchi farqli tomoni shundaki, pashtu tili grammatikasida o'tgan zamonni ifodalovchi gaplarda kesim o'timli fe'l bilan ifodalansa, gapning kesimi to'g'ri to'ldiruvchi bilan moslashadi, shu bilan birga bu turdagi gaplarda kesim oddiy sodda fe'llardan tashqari, fe'liy birikmalar bilan ham ifodalanadi:

د نیکور غی لاره ور څخه پوښتنه وکړه⁷

[d nikmrg'ey lāra var tsxa poštəna vu kṛa.]

Omad yo'lini undan so'radi.

پیل کول [payl kawl]-boshlamoq

پیکی هم داسي په خبرو پیل وکړ⁸.

[Pikey ham dāsi pə xabaro payl wu kṛ.]

Biroq bu grammatik holat hind tilida ot tarkibli qo'shma fe'l deb nomlanadi. Ot tarkibli qo'shma fe'llar ikki bo'lakdan iborat bo'lib, birinchisi-ot, ikkinchisi-fe'ldir. Qo'shma fe'lning ot bo'lagi vazifasida ot, sifat, ravish ishlatilishi mumkin. Birinchi bo'lak ish-harakat yoki holatning mazmunini ifodalaydi. Fe'l bo'lagi vazifasida करना-[karna] qilmoq, होना-[ho'na]bo'lmoq, देना-[dena] bermoq, लेना-[lena] olmoq, रखना-[rakhna] qo'ymoq, खाना-[khana]yemoq boshqa fe'llar kelishi mumkin. Fe'l bo'lagi fe'llik xususiyatlarini anglatadi.

1. शुरू करना-[shuru karna] boshlamoq .

उसने स्कूल जाने को शुरू किया। [Usne skul jane ko' shuru kiya]. U maktabga borishni boshladi.

2. तैयार करना-[teyyar karna] tayyorlamoq .

मैं ने खाना तैयार किया। [Me ne khana teyyar kiya]. Men ovqat tayyorladim.

Uchinchi farqli tomoni, pashtu tili grammatikasida o'tgan zamon o'timli fe'li bo'lib kelganida kishilik olmoshlari vositali(kosvanniy) shaklga o'zgaradi. Hind tili grammatikasida esa bu holat egalik olmoshlari deb nomlanadi.

Xulosa

Mazkur mavzuni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- pashtu tilini hindiy tili grammatikasi bilan tahlil qilganimzda, pashtu tilida faqat ergativ konstruksiyaning nomi berilganligi;

- hindiy tilida esa konstruksiya uchga (subyektiv,obyektiv,neytral) bo'linishini va ushbu konstruksiyalardan pashtu tili grammatikasidagi ergativ konstruksiyaga hindiy tilidagi obyektiv konstruksiya to'g'ri kelishligi aniqlanildi;

- shuningdek, pashtu tilida qolgan konstruksiyalarning nomlari berilmaganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. R.Inomkhojayev. Methodological Approaches for teaching the Ergative Construction in Pashto. USA Indiana University. 2015.
2. R.Inomxojayev. Pashtu tili grammatikasi.Toshkent 2020.
3. B.R.Rahmatov, M.Q.Sodiqova, S.S.Nurmatov, M.M.Suleymanova. Hindiy tili grammatikasi.Toshkent.2018.
4. گل پاچا الفت. غوره نثرونه پشاور. ۱۳۷۳.
5. عبدالغفور «ليوال» د ماشومانو لپاره کيسې او بوختيا وي. ۱۳۸۱ هـ ش/۲۰۰۲ م.
6. M.Farooq. Pashto language:Solving the mysteries of the past tense.
7. Muhammad. Ergative construction in Pashto.2019.
8. R.M.V.Dixon. Ergativity.Cambridge:Cambridge University Press.1994.